



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-iyunda Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 22 410,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 7,1 %ga o'sdi.

2019 yil yanvar-iyun yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 7 707,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,7 %ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakillantirishda Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 10,1 %ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

Ko'rsatkichlar	Mlrd.so'm		2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan, %da
	yanvar-iyun 2018 yil	yanvar-iyun 2019 yil	
<b>I. YaHM</b>	<b>16707,0</b>	<b>22410,7</b>	<b>107,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15662,0	20723,0	106,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	1045,0	1687,7	109,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>15662,0</b>	<b>20723,0</b>	<b>106,9</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4232,6	4775,7	101,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7439,1	10935,3	111,7
sanoat	6919,6	10112,1	110,1
qurilish	519,5	823,2	133,3
Xizmatlar	3990,3	5012,0	104,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1128,4	1333,1	103,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	951,2	1075,8	104,0
boshqa xizmat tarmoqlari	1910,7	2603,1	104,3

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 101,3 %, (YaHM tarkibidagi ulishi – 23,0 %), sanoat – 110,1 % (48,8 %), qurilish – 133,3 % (4,0 %), xizmatlar – 104,0 % (24,2 %).

### 2019 yil yanvar-iyunda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




### *Iqtisodiy faoliyat turlari*

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 92,5 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 7,5 %ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 4,0 % punktga kamaydi va hisobot yilida 23,0 %ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 5,3 % punktga o'sdi va 52,8 %ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 24,2 %ni tashkil etdi va 2018 yil yanvar-iyun (25,5 %) bilan taqqoslanganda 1,3 % punktga kamaydi.

## Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-iyun



2019 yil yanvar-iyun




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 6,4 %ni (2018 yil yanvar-iyun – 7,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 5,2 %ni (6,1 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 12,6 %ni (12,2 %) tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil  
yanvar-iyun



2019 yil  
yanvar-iyun




- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

YaHM o'sish sur'atiga xizmatlar sohasining ta'siri 1,0 f.p. tashkil etdi. Ushbu sohada qo'shilgan qiymatning 4,0 % ga o'sishi kuzatildi. Shundan, tashish va saqlash, axborot va aloqa 4,0 % ga va boshqa xizmatlar 4,3 % ga o'sdi.

Qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 33,3 % ga osdi. YaHM ning mutloq o'sishi qurilish tarmog'ining ijobiy hissasi 1,1 f.p. darajasida baholandi.

2019 yil yanvar-iyun yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 1,3 % darajasida ijobiy o'sish sur'ati qayd etildi. Mazkur tarmoqning YaHM mutloq o'sish sur'atiga ta'siri 0,4 f.p. ni tashkil etdi.

## 2019 yil yanvar-iyunda YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi






# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-iyunda YaHM deflyatori indeksi 2018 yil yanvar-iyundagi narxlarga nisbatan 125,3 foizni tashkil etadi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari mahsulotga sof soliqlarda – 147,5 % va sanoat tarmog'ida – 132,8 % qayd etildi.

Viloyatning o'rtacha darajasidan past bo'lgan deflyator indeksleri qurilishda – 118,8 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 111,4 %, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 114,2 %, tashish va saqlash, axborot va aloqada – 108,7 %, boshqa xizmatlarda – 130,6 % qayd etildi.

## 2019 yil yanvar-iyunda YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi



Toshkent viloyati Statistika boshqarmasi  
Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi  
Nashr uchun mas'ul:  
Sh. Bekpo'latov  
Tel.: (0371) 230-86-57